

JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA OMMAVIY NOROZILIK HARAKATLARINI KELITIRIB CHIQRUVCHI OMILLARNI BARTARAF QILISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Raxmatov Mizrob Majitovich

Jamoat xavfsizligi universiteti magistranti

Annotatsiya: *Mazkur maqolada mamlakatimizda fuqarolarning turmush tarzini yaxshilash bo'yicha olib borilayotgan islohotlar, xorijiy davlatlar misolida sodir etilgan ommaviy norozilik harakatlari, ularni keltirib chiqaruvchi omillar o'rganib chiqilgan.*

Tayanch so'zlar: *norozilik, namoyish, ommaviy, omil, tartibsizlik, ijtimoiy-siyosiy vaziyat, xavfsizlik.*

Аннотация: *В данной статье освещаются реформы, проведенные для улучшения образа жизни граждан в нашей стране, массовые протесты, имевшие место в зарубежных странах и их вызвавшие факторы.*

Ключевые слова: *протест, демонстрация, масса, фактор, беспорядки, общественнополитическая ситуация, безопасность.*

Abstract: *This article highlights the reforms carried out to improve the lifestyle of citizens in our country, the mass protests that took place in foreign countries, and the factors that caused them.*

Keywords: *protest, demonstration, mass, factor, unrest, socio-political situation, security.*

Ma'lumki, so'nggi bir asrda gegemon davlatlar tomonidan yer sharini mintaqalarga bo'lish, tarafdor bo'lmagan kichik davlatlarda siyosiy-ijtimoiy, iqtisodiy va kriminogen vaziyatni izdan chiqarish orqali aholini ommaviy noroziliklar to'lqiniga tushirish va amaldagi hukumatni ag'darish amaliyoti keng foydalanilmoqda.

Terrorizm, ekstremizm, transmilliy va kiber-jinoyatchilik, odam savdosi, narkotrafik kabi tahdidlar xavfi oshib bormoqda. Ba'zi hududlarda atayin beqarorlik yuzaga keltirilib, norozilik kayfiyati avj oldirilmoqda.³⁴

Bugungi kunda ommaviy noroziliklar kelib chiqishi mumkin bo'lgan omillar o'rganilganda, dastlab biron-bir omil norozilik namoyishi keltirib chiqarishi, keyinchalik esa norozilik namoyishida keskinlikning ortishi bilan ommaviy tartibsizlikka aylanib ketishi holatlari kuzatilmoqda. Keskinlikning ortish holati, ushbu noroziliklar vaqtida davlatning namoyishchilarga tazyiq o'tkazishi, huquqni muhofaza qiluvchi organlarning olomonga kuch ishlatishi yoki ular bilan to'g'ri tushuntirish ishlar olib borilmasligi, shuningdek, olomonning talabi qondirilmasligi bilan izohlanishi mumkin.

Dunyoning bir qator mamlakatlarida miting, yig'ilish va namoyishlarni o'tkazish to'g'risida ariza berish tartibi, hokimiyat va huquqni muhofaza qiluvchi organlarning

³⁴ Jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyatdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev raisligida 19-yanvar kuni ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari bo'yicha videoselektor yig'ilishi. 2021-yil 19-yanvar.

yuqorida ko'rsatilgan harakatlarni amalga oshirish sohasidagi huqu va majburiyatlari, jumladan, ushbu faolliklarni to'xtatib turish yoki tugatish asoslari va tashkil etish va o'tkazish tartibini buzganlik uchun javobgarlik masalasi qat'iy belgilab qo'yilgan (Germaniya, Fransiya, Estoniya, Ozarbayjon).³⁵

Dunyoda bo'lib o'tayotgan ommaviy noroziliklarning paydo bo'lish mexanizmiga e'tibor qaratsak, barcha ommaviy noroziliklarda o'xshash jihat mavjud. Bu aholini jumbushga keltiruvchi davlatning o'z fuqarolariga nisbatan qilgan noto'g'ri harakati hisoblanadi.

Masalan, 2025 йил sentabrda Nepal hukumati soxta xabarlar tarqatish va firibgarlik kabi suiiste'molliklarga qarshi kurashish uchun platformalar davlat organlarida ro'yxatdan o'tmaganini aytib, bir nechta ijtimoiy tarmoqlarga kirishni taqiqladi.

Natijada ijtimoiy tarmoqlarning bloklanishiga qarshi 2025 yil 4-sentabrda Nepalda ommaviy noroziliklar "Gen Z" harakati sifatida keng tarqaldi. Bu harakat asosan yoshlar tomonidan boshlanib, ijtimoiy tarmoqlarni taqiqlash, korruptsiya va iqtisodiy muammolarga qarshi ko'tarildi.

Noroziliklarning asosiy sabablari etib quyidagilarni ko'rsatish mumkin.

- Ijtimoiy tarmoqlarni taqiqlash: 2025 yil 4-sentabrda Nepal hukumati Facebook, Instagram, YouTube, X (Twitter), LinkedIn, Reddit va boshqa 26 ta ijtimoiy tarmoqni taqiqladi. Bu qaror yoshlar uchun asosiy ish va ijtimoiy aloqa vositalarini yo'qotishga olib keldi, natijada keng ko'lamlı noroziliklar boshlandi.³⁶

- Korruptsiya va elita hokimiyati: Nepaldagi siyosiy elita o'zlarining xashamatli hayotini ijtimoiy tarmoqlarda ko'rsatgani yoshlarda nafrat uyg'otdi. Ayniqsa, Pokhara xalqaro aeroportini qurishda 71 million dollarlik korruptsiya holati keng muhokama qilindi.

- Iqtisodiy muammolar: Yoshlar orasida ishsizlik darajasi 20,8% ga yetgani, 2024 yilda 741 000 kishi chet elga ish izlab ketgani iqtisodiy beqarorlikni ko'rsatadi. Bu holat yoshlarning mamlakatda qolishga qiziqishini kamaytirdi.³⁷

Namoyishchilar "Ijtimoiy tarmoqlar emas, korruptsiya bilan kurashing", "Ijtimoiy tarmoqlarni ochib qo'ying" va "Yoshlar korruptsiyaga qarshi" degan shiorlar bitilgan plakatlarni ko'tarib chiqdi.³⁸

Mazkur norozilik harakatlari oqibatida 74 kishi halok bo'ldi, hukumatda bir qator o'zgarishlar, jumladan bosh vazir va ichki ishlar vaziri iste'fo berishdi.

Nepaldagi "Gen Z" noroziliklari yoshlar orasidagi beqarorlik, ijtimoiy tarmoqlarni taqiqlash va korruptsiyaga qarshi ko'tarilgan jadal harakat sifatida tarixga kirdi. Bu voqea, yoshlarning siyosiy va ijtimoiy jarayonlardagi ta'sirini ko'rsatadi.

Noroziliklar dunyo miqyosida yoshlar tomonidan boshlangan "Gen Z" harakatining bir qismi sifatida ko'rildi. Bu harakat korruptsiya, iqtisodiy muammolar va ijtimoiy

³⁵ O'zbekiston Respublikasining "Miting, yig'ilish va namoyishlar to'g'risida" qonun loyihasi. <https://regulation.gov.uz/uz/document/21021>

³⁶ Nationwide protests led by Gen Z in Nepal. <https://www.gwp.org/en/gwp-SAS/WE-ACT/change-and-impact/News-and-Activities/2025/nepal-riots-2025>

³⁷ Nepal Protests 2025: A Comprehensive Analysis of the Gen Z Revolution. <https://boltzy.me/nepal-protests-2025>

³⁸ Nineteen killed in Nepal in 'Gen Z' protest over social media ban, corruption

<https://www.reuters.com/business/media-telecom/nineteen-killed-nepal-gen-z-protest-over-social-media-ban-corruption-2025-09-08/>

tengsizlikka qarshi ko'tarilgan. Marokash, Madagaskar, Peru va Filippinda ham shunday harakatlar kuzatildi.³⁹

Birgina mamlakatdagi siyosiy-ijtimoiy vaziyat, aholining kayfiyatini e'tiborga olmasdan qabul qilingan hujjat va jumbushga kelgan olomon talablarini zudlik bilan o'rganmaslik ortidan boshqa davlatlar bo'ylab ham ommaviy norozilik harakatlari va tartibsizliklar bo'lib o'tgan.

Ommaviy noroziliklarni oldini olishning o'ziga xos jihatlaridan biri shuki, noroziliklar vujudga kelgandan so'ng uni bartaraf qilish imkonsiz jarayon bo'lishi mumkin. Shuning uchun ham, ommaviy noroziliklarni bartaraf etishdan ko'ra, uning paydo bo'lishiga imkoniyat yaratuvchi holatlarni aniqlash va zarur chora-tadbirlar belgilash muhim jarayon hisoblanadi. Bunda dastlab ommaviy noroziliklarni keltirib chiqaruvchi omillarni aniqlab olish lozim.

Soha mutaxassislarining fikricha, ommaviy noroziliklarni keltirib chiqaruvchi omillarni tahlil qilganda, ularni quyidagi guruhlariga bo'lish mumkin.

Birlamchi omillar:

1. Davlatdagi ijtimoiy-iqtisodiy ahvolning tangligi;
2. Ishsizlik darajasining yuqoriligi;
3. Mamlakatda muttasil davom etib kelayotgan beqaror siyosiy vaziyat;
4. Mamlakat hududlaridagi turli xil milliy-etnik ziddiyatlar;
5. Diniy konfessiya vakillari o'rtasidagi munosabatlarning yomonlashuvi;
6. Milliy ozchilikka nisbatan diskriminatsiya mavjudligi.

Ikkilamchi omillar:

1. Ommaviy tadbirlarni tashkil qilish va o'tkazishda yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklar;

2. Qo'shni davlatlar hududidagi ommaviy noroziliklar ta'siri;

3. Yirik davlatlar manfaatlariga xizmat qiluvchi tendensioz saytlarning (Ozodlik radiosi, Eltuz.com va boshqa) provokatsion faoliyatlari.

Bundan tashqari, ushbu omillarni davlatga nisbatan ta'sir o'tkazish subyektlariga qarab ichki va tashqi omillarga ham ajratish mumkin.

Ichki omillar: davlatdagi ijtimoiy-iqtisodiy ahvolning tangligi, mamlakatda muttasil davom etib kelayotgan beqaror siyosiy vaziyat, ishsizlik darajasining yuqoriligi, diniy konfessiya vakillari o'rtasidagi munosabatlarning yomonlashuvi, milliy ozchilikka nisbatan diskriminatsiya mavjudligi, ommaviy tadbirlarni tashkil qilish va o'tkazishda yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklar.

Tashqi omillar: chegara hududlardagi turli xil milliy-etnik ziddiyatlar, qo'shni davlatlar hududidagi ommaviy noroziliklar ta'siri, yirik davlatlar manfaatlariga xizmat qiluvchi tendensioz saytlarning (Ozodlik radiosi, Eltuz.com va boshqa) provokatsion faoliyatlarini ajratib ko'rsatish mumkin.

Mutaxassislar fikricha, ijtimoiy adolat mezonlarining qo'pol ravishda buzilishi, aholi ehtiyoji uchun zarur tovarlarning tanqisligi yoki ushbu mahsulotlar narxining keskin

³⁹ What to Know About the 'Gen Z' Protests Roiling Countries Across the Globe. <https://time.com/7322834/gen-z-protests-government-corruption>

ko'tarilib ketishi, fuqarolar huquq va erkinliklarini oshkora poymol qilinishi va mansabdorlarga xos jinoyatlar (poraxo'rlik, byurokratizm va tamagirlik)ning avj olishi, singari illatlar ham ommaviy noroziliklarni vujudga keltiradigan omil o'laroq qaraladi.

Sanab o'tilgan mazkur holatlar o'rtasida davlatdagi ijtimoiy-iqtisodiy ahvolning tangligi va aholining o'z vaqtida hal qilinmagan turli muammolar yuzasidan norozilik namoyishlarining keyinchalik ommaviy tartibsizliklarga aylanib ketishi eng muhim sabablardan biridir.

2013-yil noyabr oyida Ukrainada boshlangan yevromaydon voqealarini bunga misol tariqasida olsak, ijtimoiy adolatsizlikning yuqori darajasi, Ukraina aholisining daromadlari va turmush darajasidagi katta farq, ijro etuvchi, sud hokimiyati va huquqni muhofaza qiluvchi organlardagi korrupsiya aholining hukumatga nisbatan ommaviy noroziligiga olib kelgan.⁴⁰

2021-yil oxirida Turkiya davlatining lira pul birligi qadrsizlanishi oqibatida mamlakatda aholi uchun zarur bo'lgan mahsulotlarning narxi keskin oshishi, poytaxt Anqara va markaziy shaharlarda aholini ommaviy to'planib, norozilik namoyishlari uyushtirishiga sabab bo'lgan. Natijada norozi kayfiyatdagi to'plangan aholi amaldagi hukumatning 30 foiz rahbariyati iste'foga ketishiga erishgan.⁴¹

Ba'zi davlatlardagi siyosiy vaziyatning bebarqaror holatini ham kelgusida ommaviy noroziliklarga turtki beruvchi kuch sifatida ko'rish mumkin.

Bunga dalil sifatida, 2019-yil 4-oktabrda Iroq davlatida og'ir siyosiy vaziyat natijasida boshlangan ommaviy noroziliklarni keltirishimiz mumkin.

Iroq so'nggi o'n besh yil davomida urush va diniy nizolar girdobida qolgan.

Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, Iroqda 2018-yildan ishsizlik darajasi yiliga 7.9 foizga o'smoqda, ammo bu yoshlar orasida ikki barobardan ham yuqori taxminan 25 foizdan ortiq. Deyarli 17 foiz mehnatga layoqatli iroqliklar faqat vaqtinchalik ish topishlari mumkin, 2014-yildan buyon mamlakat aholisining deyarli to'rttdan bir qismi kuniga 1.9 dollardan kam mablag' evaziga yashamoqda.

Har oltinchi oilada oziq-ovqat tanqisligi mavjud. Mamlakatni qayta tiklash uchun 88 mlrd dollar mablag' talab qilinmoqda.

Davlatdagi siyosiy beqarorlik holati haqida gapirilganda shunisi e'tiborliki, bunda amalga oshirilgan ommaviy noroziliklardan nafaqat ichki kuchlar, shuningdek tashqi kuchlar ham o'z manfaatlarida yo'lida foydalanishadi.

Bunday noroziliklar mamlakatga tashqi kuchlarning osonlik bilan suqilib kirishiga imkoniyat yaratadi.

Siyosiy beqaror davlatlardagi ommaviy noroziliklar jarayonida, hukumatning tartibsizliklar ishtirokchilariga nisbatan kuch ishlatishi va bundan jabr ko'rgan aholining "huquqlarini himoya qilish" niqobi ostida suqilib kirish senariysi hozirda juda ko'p yirik davlatlar tomonidan qo'llanib kelinmoqda.

Ommaviy noroziliklar jamiyatdagi turli qarama-qarshi milliy-etnik guruhlarining o'zaro ayirmachilik ruhidagi nizolari ta'siri ostida ham vujudga kelishi mumkin.

⁴⁰ Евромайдан. <https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%95%D0%B2%D1%80%D0%BE%D0%BC%D0%B0%D0%B9%D0%B4%D0%B0%D0%BD>

⁴¹ Митингующие в Турции потребовали отставки властей после обвала курса лиры. <https://www.rbc.ru/politics/24/11/2021/619d585b9a794758f66c638e>

Bunday turdagi ommaviy noroziliklar ko'proq avvalgi sobiq ittifoq tarkibida bo'lgan davlatlarga xos bo'lib, uning sabablari tahlil qilinsa, ularning aksariyatining ildizlari o'tmish xatolariga, ya'ni sobiq sovet tuzumi sovet davlatini tuzishda chegaralarni belgilashda amalga oshirilgan noto'g'ri siyosatiga va o'sha davrda yo'l qo'yilgan milliy kamsitishlarga, shuningdek, davlat siyosatini nomaqbul olib borilishi kabi holatlarda ko'rishimiz mumkin.

Misol tariqasida 1991-yilda boshlangan Ozarbayjon va Armaniston o'rtasidagi Tog'li Qorabog' mojarosini keltirishimiz mumkin. Tog'li Qorabog' avtonom viloyat sifatida 1923-yilda Ozarbayjon hududida tashkil etilgan bo'lib, bu yerda asosan arman millatiga mansub aholi (89.24 %) istiqomat qiladi.⁴²

Ular 1820-yilda chor Rossiyasi tomonidan bu yerlarga ko'chirib olib kelingan. SSSR tarqalgandan so'ng armanlar separatistik harakatni boshlashdi va ikki millat ozarbayjon va armanlar o'rtasida millatlararo mojaro vujudga keldi. 1991-yil separatistik rejim Tog'li Qorabog' mustaqilligini e'lon qildi, lekin dunyoning hech bir mamlakati bu mustaqillikni tan olmadi.

Davlatlar o'rtasidagi chegaralarni delimitatsiya va demarkatsiya qilish ishlarining to'liq yakunlanmaganlik holati ham chegara hududlarida yashovchi aholi punktlari o'rtasida o'zaro ommaviy nizolarni keltirib chiqaruvchi sabablardan biri bo'lmoqda.

Misol uchun, Tojikiston va Qirg'iziston o'rtasida 970 kmdan ortiq umumiy chegara bo'lib o'tgan yillar mobaynida uning 510 kmga yaqini demarkatsiya qilingan. Shu sababli ham chegara hududlarda bot-bot qurolli to'qnashuvlar bo'lib turadi. 2020-yil 7-may kuni Tojikiston va Qirg'iziston chegara hududida Qirg'iziston fuqarolarining bahsli hududda 4 gektar yer maydonini o'zlashtirishlari natijasida u yerda yashovchi qirg'izlar va tojiklar o'rtasida to'qnashuv bo'lib ommaviy norozilik va tartibsizliklar kelib chiqqan.

Diniy konfessiya vakillari o'rtasidagi munosabatlarning yomonlashuvi natijasida vujudga kelgan ommaviy noroziliklarga 2020 yil 24 fevral kuni Hindiston davlatida boshlangan voqealarni misol qilib ko'rsatishimiz mumkin.

Hindiston parlamenti Pokiston, Afg'oniston va Bangladeshdan kelgan qochqinlarga fuqarolik berishni soddalashtirish bo'yicha Fuqarolik to'g'risidagi Qonunga o'zgartirish kiritdi, ammo bir shart bilan, ular induistlar, sikhlar yoki nasroniylar bo'lishi mumkin, faqat musulmon bo'lmasliklari kerak.⁴³ Shu bilan bir vaqtda, ko'plab shtatlarda mahalliy musulmonlar Hindiston fuqarosi ekanini isbotlashi kerak bo'ladi. Agar ular kerakli dalillar keltira olishmasa, ular deportatsiya qilinishi mumkin bo'lgan.

Ushbu qonun loyihasi hindistonlik musulmonlarni g'azablantirdi.

Ularning fikricha, so'nggi tuzatishlar konstitutsiyaga zid, chunki rasman dunyoviy hisoblangan mamlakatda aholining bir qismi diniy e'tiqodidan kelib chiqib kamsitilgan. Hindiston shimoli-sharqiy shtatlari aholisi ham qonunga e'tiroz bildirib, ular Bangladeshdan kelgan millionlab odamlar ularning shtatlarida doimiy qolib ketishidan xavotirda bo'lishgan.

⁴² Tog'li qorabog' muxtor viloyati. https://uz.wikipedia.org/wiki/Tog%CA%BBli_Qorabog%CA%BB_muxtor_viloyati

⁴³ Хиндлар нега Исломга қарши исён кўтармоқда?

<https://sputniknews.uz/20200228/Nega-indlar-Islomga-arshi-isn-ktarmoda-13562068.html>

Bu tuzatishlarni mahalliy aholi manfaatlariga zid deb hisoblab, musulmonlar ommaviy noroziliklar to'liqini boshlashgan.

Yana shuni ta'kidlash joizki, ommaviy tadbirlar vaqtida huquqni muhofaza qiluvchi idora xodimlarining yoki ommaviy tadbirlar tashkilotchilarining tadbirlarni tashkil qilish va o'tkazishda mas'uliyatsizlikka yo'l qo'yishi, turli noto'g'ri qarorlar qabul qilishi ham aholi tomonidan ommaviy norozilik holatlarini keltirib chiqarishi, bu esa kelgusida ommaviy tartibsizliklarga aylanib ketishi ehtimolini oshirishi mumkin.

2017-yilda Toshkent shahridagi Sayilgoh ko'chasida o'tkazilgan rekord osh tadbirida tashkilotchilar tomonidan OAVda keng yoritilib, kirish chegaralanmagan degan ma'noda reklamalar berilganligi sababli, "Amir Temur xiyoboni" atrofida 120.000 dan ortiq fuqarolar yig'ilib, osh tarqatish bilan bog'liq jarayonda turli ko'ngilsizliklar sodir bo'lgan.

2018 yil 30 iyunda Yoshlar kuniga bag'ishlanib "Milliy", stadionda o'tkazilgan tadbirga kirish chiptalari kassalarda tekin tarqatilmoqda mazmunida ommaviy axborot vositalarida keng yoritilishi natijasida 30.000 kishiga mo'ljallangan stadionga taxminan 50.000ga yaqin fuqaro tashrif buyurgan.

Bu o'z navbatida, stadion hududiga kira olmagan fuqarolar tomonidan juda ham qattiq norozilikka sabab bo'lgan.

Shu bilan birga, turli bayramlar va siyosiy tadbirlarda (miting va namoyishlar) huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan ommaga nisbatan turli qurollardan o'rinsiz foydalanishi kutilmagan oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Ommaviy tartibsizliklarning boshlang'ich bosqichida huquqni muhofaza qiluvchi organlarda kuch va vositalarning yetarli darajada bo'lmasligi, olomonga tushuntirish ishlarini olib bormasdan, uning yetakchilarini qo'lga olishga qaratilgan harakatlari ommani g'alayonga undovchi sabab bo'lishi mumkin.

Hozirgi kunda ommaviy noroziliklarni tashkil qilish bilan biror mamlakatda siyosiy beqarorlik holatini vujudga keltirishda yirik davlatlar axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan oqilona foydalanishmoqda.

Jumladan, o'zlarining manfaatlariga xizmat qiluvchi tendensioz saytlar orqali yashirin faoliyat bilan mamlakat aholisi ongiga salbiy axborot- psixologik ta'sir o'tkazib, ularda davlat boshqaruviga nisbatan norozilik kayfiyatini uyg'otish va davlat siyosatiga qarshi norozilik chiqishlari uyushtirishga chorlovchi axborotlar tarqatilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, xorijiy mamlakatlarda ro'y bergan ommaviy norozilik namoyishlardan kelib chiqib aytish mumkinki, aholini norozilik kayfiyatini kuchaytiruvchi omillarga qarshi kurashishda nafaqat amaldagi hukumat, balki har bir fuqarolar javobgar hisoblanadi.

Hozirgi kunda mamlakatimizda hukmronlik surayotgan tinchlik, amaldagi hukumatimiz tomonidan millatlararo va dinlararo totuvlik hamda iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi turmush tarzini yaxshilash bo'yicha olib borilayotgan keng ko'lamli ishlarga har birimiz kamarbasta bo'lishimiz zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T.: O'zbekiston, 2025.
2. Jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyatdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev raisligida 19-yanvar kuni ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari bo'yicha videoselektor yig'ilishi. 2021-yil 19-yanvar.
3. Nationwide protests led by Gen Z in Nepal. <https://www.gwp.org/en/gwp-SAS/WE-ACT/change-and-impact/News-and-Activities/2025/nepal-riots-2025>
4. Nepal Protests 2025: A Comprehensive Analysis of the Gen Z Revolution. <https://boltzy.me/nepal-protests-2025>
5. Nineteen killed in Nepal in 'Gen Z' protest over social media ban, corruption. <https://www.reuters.com/business/media-telecom/nineteen-killed-nepal-gen-z-protest-over-social-media-ban-corruption-2025-09-08/>
6. What to Know About the 'Gen Z' Protests Roiling Countries Across the Globe. <https://time.com/7322834/gen-z-protests-government-corruption>
7. Евромайдан. <https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%95%D0%B2%D1%80%D0%BE%D0%BC%D0%B0%D0%B9%D0%B4%D0%B0%D0%BD>
8. Митингующие в Турции потребовали отставки властей после обвала курса лиры. <https://www.rbc.ru/politics/24/11/2021/619d585b9a794758f66c638e>
9. Tog'li qorabog' muxtor viloyati. https://uz.wikipedia.org/wiki/Tog%CA%BBli_Qorabog%CA%BB_muxtor_viloyati
10. Ҳиндлар нега Исломга қарши исён кўтармоқда? <https://sputniknews.uz/20200228/Nega-indlar-Islomga-arshi-isn-ktarmoda-13562068.html>